

## **DORIVOR O`SIMLIKLARDAN SALOMATLIGINI SAQLASHDAGI AHAMIYATI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH**

*Oltiboyeva Mavsuma G`ulom qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrsi assistenti*

**Annotatsiya** Dorivor o`simliklar o`z tarkibida ko`plab kasallikka shifo bo`la oladigan, kishi organizmiga qandaydir ta`sir ko`rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Shu sababli ularning dorivor o`simliklar deb atalishi va tibbiyotda qo`llanilishi haqida aytib o`tgan edik .Mana shu biologik faol moddalar o`simliklarning xama organlarida bir xil miqdorda to`planmas ekan .Ba`zi bir moddalar ko`proq o`simliklarning yer ostki organlarida-ildizi, ildizpoyasi, tugunagi yoki piyozida yig`ilsa, ba`zilari aksincha, asosan yer ustki qismida-bargi, guli, mevasi, urug`i, po`stlog`ida to`planar ekan. Binobarin,bemorlarga beriladigan dorilarni tayyorlash yoki ularni sof holda ajratib olish uchun o`simliklarning ayni shu biologik faol birikmalar ko`p yig`ilgan organlaridan foydalaniladi. Dori tayyorlash, dori preparatlariyoki sof holdagi dori moddalar olish uchun ishlatiladigan biologik faol birikmalarga boy bo`lgan o`simlik organlariga «dorivor mahsulot» deb ataladi.

**Kalit so'zlar:** biologik faol modda, ildizpoya, tukanak, efir, smola.

### **Importance of medicinal plants in health care and their protection**

**Annotation** Medicinal plants contain biologically active substances that can cure many diseases and have some effect on the human body. For this reason, we mentioned that they are called medicinal plants and are used in medicine. These biologically active substances are not collected in the same amount in all organs of plants. Some substances are more abundant in plants. if it is collected in the underground organs - roots, rhizomes, nodules or bulbs, some of them, on the contrary, mainly accumulate in the upper parts of the earth - leaves, flowers, fruits, seeds, bark. Therefore, the same biologically active compounds of plants are used to prepare medicines for patients or to extract them in pure form. Plant organs rich in biologically active compounds used for the preparation of

medicines, medicinal preparations or pure medicinal substances are called "medicinal products".

**Key words:** biologically active substance, rhizome, root, ether, resin.

Dorivor mahsulot sifatida o'simlikning hamma organlari (bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tugunagi, piyozboshchasi) ayrim-ayrim holda yoki hammasi birgalikda (o'simlikning butun yer ustki qismi) qo'llanishi mumkin. Ba'zan (efir moylari, yog'lar, shira, sharbat) yoki o'sib turgan o'simlikdan (smola, daraxt yelimlari, daraxt shirasi) olingan moddalar ham dorivor mahsulot bo'lib xizmat qiladi.

Dorivor mahsulotlar tarkibida biologik faol moddalar ko'p to'plangan, ya'ni sifati oshgan davrda dori tayyorlanadi. Shunga ko'ra, mahsulotlar o'simliklardan turli fasllarda yig'iladi va ular o'z qimmatini yo'qotmaslik uchun zudlik bilan quritiladi yoki quritilmay farmasevtika zavodi, fabrika va laboratoriyalarga yuboriladi. Ho'lligicha ishlatilmaydigan mahsulotlarni o'z vaqtida quritmasa, o'simlik organlari namlik va issiqlik ta'sirida qizib, tarkibidagi biologik faol moddalar parchalanadi; dorivor o'simliklar qimmatini yo'qotadi. O'simlik xomashyolaridan tayyorlanayotgan dori-darmonlarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Darxaqiqat shunday ekan bu talabni to'liq qondirish uchun o'simlik boyliklaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga ulardan ko'proq dori-darmonlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berish kerak. Dorivor o'simlik boyliklaridan to'g'ri va oqilona foydalanmaslik, ularning biologik xususiyatlarini hisobga olmaslik, ularni yig'ib olishni belgilangan muddatdan o'tkazmaslik, o'simlik turlarini yo'qolib ketishiga hamda boyliklarining qayta tiklanishiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shu sababli shidobaxsh o'simlik xomashyolarini tayyorlashda ilmiy asosda ishlab chiqilgan tadbir va qoidalariga to'liq amal qilish zarur. O'simlik xom-ashyolarini tayyorlashda faqat uning miqdoriga hamda belgilangan rejani ortig'i bilan bajarishga e'tibor beribgina qolmay balki sifatiga ham talabchanlikni oshirish lozim. Buning uchun o'simlik xom-ashyolarini tayyorlovchi tashkilot xodimlariga hamda mutaxassislar o'simliklarning morfologik va biologik xususiyatlari bilan to'liq tanish bo'lishi ularga o'sish va tarqalish mohiyatlarini berish muddati hamda davrlarini mahsulotni tayyorlash qoidasi va quritish usullarini kimyoviy

tarkibi va ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'la va ishiga ega bo'lishlari shuningdek ular o'simlik turlarini bir-biridan to'liq farqlay olishlari zarur. Chunki 1-turkumga mansub turlar bir-biriga juda o'xshash bo'lsada shifobaxsh o'simliklar e'tiborsizlik bilan tayyorlansa u ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shifobaxsh o'simlik boyliklarini qayta tiklash va muhofaza etish uchun quyidagi shartlarni bajarish zarur.

- o'simliklarning barcha belgi hamda xususiyatlarini yaxshi bilish; o'simliklarni sindirib, ildiz yoki ildiz poyasi hamda tugunaklari bilan sugurib olmaslik;

-o'simliklarni ildiz yoki piyozlaridan tayyorlanayotgan bo'lsa,ularning hammasini qatorasiga olmasdan, balki oralatib kovlab olish;

-urug'ini sutlik davrida mevasi pishmasdan yig'ishtirib olmaslik;

-yetilgan urug' hamda mevalari bitta qoldirmay terib olmaslik;

-gullab turgan yoki urug'lagan o'simliklarni yalpi yig'ishtirib olmaslik;

-yig'im-terim o'tkaziladigan maydonlarni har 2-5 yilda almashtirib turish;

-kasallangan hamda zararlangan o'simlik turlarini termaslik, ularga qarshi kurash choralarini ko'rish;

-noyob o'simliklar boyliklarini saqlash maqsadida zakazniklar tashkil etish, shu joylarda chorva mollarini boqmaslik, hamda em-xashak tayyorlamaslik va hakoza.

Ana shu tadbir hamda qoidalarga qat'iy amal qilish zarur. Aks holda o'simliklar boyliklari yildan-yilga kamayib ketaveradi. Terim tadbirlarini belgilangan muddatdan o'tkazmaslik, o'simlik turlarining yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Shu sababli shifobaxsh o'simlik xomashyolarini tayyorlashda ilmiy asosda ishlab chiqilgan tadbir va qoidalari ga to'liq amal qilish zarur. Kasalliklarni davolash uchun odatda dorivor o'simliklardan dorixona, farmatsevtika zavodlarni fabrikalarni hamda laboratoriyalarida yoki uy sharoitida bir qator dori preparatlardan tayyorlanadi yoki ulardan dori tayyorlash uchun sof hamda kimyoviy birikmalardan o'simliklarning biologik aktiv moddalari ajratib olinadi. Ma'lumki, odam va hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolash hamda shu kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar hisoblanadi. O'simliklardan sof hamda ajratib olingan kimyoviy birikmalar ba'zan tirik organizmlarga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli aktiv moddalar bo'lishi ham mumkin. Ammo

ayrim o'simliklarning o'zi zaharli bo'lishi tabiiy masalan kuchala parpi isiriq, turkiston adonisi (sariqgul) omonqora, afsonak, achchiqmiya (eshakmiya) qizilcha (efedra) va boshqalar zaharli o'simliklar hisoblanadi. Lekin shu bilan birga bir qancha, aslida ovqatga ishlatiladigan o'simliklardan shivobaxsh vosita sifatida foydalansa bo'ladi va foydalanib kelinadi ham. Quyidagilardan bunga misol qilib keltirish mumkin: anor, anjir, o'rik, behi, kashnich, shivit, garmdori, zig'ir turli xil moylar murch va boshqalar. O'simliklarning ko'pchiligi zaxarli bo'lmagan biologik faol moddalar saqlovchi va turli kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladigan shivobaxsh o'simliklardir. Qadim zamonlarda odam o'zini yomon sezgan, kasallangan, yaralangan shikastlangan hollarda dardiga davoni atrofdagi bor narsalardan ehtimol birinchi galda o'simliklardan axtarganlar va ularning birortasidan foydalangandir, shu bilan shifo topgandir. Axir hozir ham biror hayvon kasallikka chalinsa dardiga davoni aksariyat o'simliklardan topadi-ku. Bu hodisa hammaga ayon. Shunisi qiziqki kasallikdan musaffo bo'lgan hayvon keyinchalik shu o'simlikni qayta iste'mol qilmaydi. Demak ibtidoiy odam ham o'z kasalligini ongsiz yoki ongli ravishda o'simlik uning organlari bilan davolay boshlagan. Shunday ekan o'simliklarni dorivor vosita sifatida inson tomonidan qo'llanish tarixini o'sha davrdan inson o'zini birinchi marta o'simlik bilan davolagan vaqtdan boshlab hisoblash kerak. Ko'p vaqtlar davomida butun dunyo xalqlarining asosiy shivobaxsh vositalari dorivor o'simliklar bo'lgan. Dori olishning sintetik, kimyoviy usullari yaratilishi bilan turli xil yangi, tabiatda uchramaydigan birikmalar shu jumladan dori moddalar ko'plab sintez qilina boshlandi. Natijada ilmiy tibbiyotda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish va ulardan foydalanish bir oz e'tibordan chetda qoldi, Lekin xalq orasida hamda an'anaviy tibbiyot yaxshi taraqqiy etgan davlatlarda ayniqsa Janubiy-Sharq Osiyo hamda Afrika davlatlarida dorivor o'simliklar hamon asosiy davo vositalari bo'lib qolmoqda. Keyingi 30-40yillar ichida esa sintetik kimyo kuchli rivojlangan sintez yo'li bilan juda ko'plab yangi va yaxshi samara beradigan kuchli ta'sir etuvchi dori moddalar yaratilgan bo'lishiga qaramay kimyo sanoati yaxshi taraqqiyot etgan davlatlarda ham dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish yana kuchaydi. Hozirgi kunda yovvoyi holda o'sadigan va o'stirilayotgan dorivor o'simliklarning 230 dan ortiq turidan tabobatda mahsulot tayyorlanadi. Shulardan 152 turining mahsulotidan kimyoviy farmatsevtika sanoatida 254

xilga yaqin dori preparatlar olinmoqda. Keyingi 4-5 yil ichida 10 ga yaqin yig'ma holdagi fitopereparatlar (o'simliklardan olingan dorivor preparatlar) tibbiyot amaliyotida turli xil kasalliklarni davolash uchun tatbiq qilinadi. Bunday pereparatlarga aloram, karsilon, safinar, tapaselxal, trizaflan, floranana, xalepin, staxiglen, biosegman, senadeksin, nigedaza, ledin, patulaten kabilar kiradi. Yovvoyi holda o'sadigan hamda jamoa va davlat xo'jaliklarida ekiladigan o'simliklardan tayyorlangan dorivor mahsulotlar miqdori yil sayin ortib bormoqda. Masalan tayyorlangan dorivor o'simlik mahsulotlarining jami miqdori 1975 yildan 1960 yilgacha nisbatan 1,27 marta, 1980 yilda esa 1,55 marta ortgan. Bu miqdor 1990 yilda 1960 yilga nisbatan anchagina oshishi kutilgan edi. Yuqorida zikr etilgan dalil va mulohazalar dorivor o'simliklarning tibbiyotda tutgan o'rni hamda ularning ahamiyati kun sayin ortib borishining isbotidir. Bejiz emaski, hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarga bo'lgan talab va ehtiyoj ularni yetishtiruvchi va tayyolovchi idoralar oldida yechilishi lozim bo'lgan qator masalalarni ko'ndalang qo'ymoqda. Chunonchi farmatsevtika sanoati, dorixonalar, Galen fabrika va laboratoriyalarini dorivor o'simlik mahsulotlari bilan ta'minlash, yovvoyi holda o'sadigan va o'stiriladigan dorivor o'simlik mahsulotlari miqdorini ko'paytirish, yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni tabiiy sharoitda saqlab qolish, ularni muhovaza qilish va ko'paytirish, dorivor o'simliklarni davlat va jamoa xo'jaliklarida ko'plab ekish shular jumlasidandir. Xalqsog'ligini saqlash, kasalliklarni oldini olish, avlodlarni sog'lom qilib tarbiyalab yetishtirish masalalariga ahamiyat berar ekanmiz, o'z vaqtida va tez yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish, kasalliklarni davolash va oldini olishning asosiy omillaridan biri bo'lishi yaxshi tasir etuvchi dorivor o'simliklar, ulardan olinadigan va tayyorlanadigan preparatlar hamda boshqa vositalar ko'plab yetkazib berishga bor imkoniyatlar jalb qilinmog'i lozim. Mahalliy rahbar hodimlar, tegishli idora va muassasalar, jamoa va davlat xo'jaliklari ma'muriyati bunga astoydil ko'maklashmoqlari zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Алтыбоева М., Норкулова З., Худойбердыева З. СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ SALVIA SUBMUTICA //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 10-11.

2. G'ulomovna, O. M., INTESTINAL, S. B. M. V. O., & MICROFLORA, I. CHILDREN//Nauchnyy Fokus.-2023. T, 1, 279-282.
3. Altyboeva M. G., KISHECHNUY B. N. S. S. V. N. A., MIKROFLORU U. DETEY//Nauchnyy Fokus.-2023 //T. – T. 1. – C. 109-112.
4. Sadriddinovna A. S., Gulyamovna A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – T. 19. – C. 49-50.
5. Alikovna J. F. et al. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI//JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 217-218.
6. Mavsuma O. medicinal properties of sea buckthorn (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 1-3.
7. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 279-282.
8. Жураева Б. Г., Пулатов Ф. А. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИКИ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ДОБАВОК И ОБЕСПЕЧИВАНИЕ ИХ КАЧЕСТВА //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 20. – №. 1. – C. 120-123.
9. Нарзуллаева М. А. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ПРИМЕНЕНИЯ ОБЛЕПИХОВОЙ МАСЛЫ //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 15. – №. 2. – C. 104-110.